

Adabivotlar

1. Баранский Н.Н. Экономическая география. Экономическая картография. -М.: Географгиз, 1956. -С.168.
2. Isayev A.A. "Transport geografiyasi" Toshkent. «MUMTOZ SO'Z» 2019. 152-b
3. Cesar Ducruet, Igor Lugo. Structure and dynamics of transportation networks: Models, methods and applications. Rodrigue, J.P., Notteboom, T.E., and Shaw, J. The SAGE Handbook of Transport Studies, SAGE, -P.347-364, 2013.
4. Komilova N.K., Jumaxanov Sh.Z. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi [Darslik]. -T.: Universiteti, 2021. 444-b.
5. Ниязов А. А. 2021. Транспорт тизими – географик таджикотлар объекти сифатида. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 837-844-6.
6. Niyazov A. History of transport geography and researches on the field https://www.iupr.ru/files/ugd/b06fdc_63e99d1f22e34d52ad53fc064e1c5dc6.pdf?index=true
7. Тархов С.А. Эволюционная морфология транспортных сетей. – Смоленск – М.: «Универсум», 2005. –С.382.
8. Jean – Paul Rodrigue Claude Comtois and Brian Slack. The Geography of Transport Systems. Third edition. Simultaneously published in the USA and Canada by Routledge, 2013. – P.411.

REZYUME. Mazkur maqolada transport geografiyasida metodologiya masalasi, o'rganishning umumiy va maxsus usullari, ularning o'ziga xosliklari tahlil etilgan. Shu bilan birga o'rganish usullarini fanga kiritgan olimlar, ular yondashuvlarining muhim jihatlari ta'xallib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье проанализированы вопросы методологии в географии транспорта, общие и специальные методы исследования, их особенности. Также рассмотрены учёные, внедрившие методы исследования в науку, и освещены важные аспекты их подходов.

SUMMARY. This article analyzes the issue of methodology in transport geography, examining general and specific research methods and their distinctive features. Additionally, it discusses the scientists who introduced these research methods to the field, focusing on important aspects of their approaches.

LANDSHAFTLARNI QISHLOQ XO'JALIK MAQSADLARIDA TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Q.S.Yarashev – *geografiya fanlari doktori, dotsent*

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

P.A.Xasanov – *tayanch doktorant*

Samarqand davlat universiteti

Tayanch so'zlar: landshaft, qishloq xo'jaligi, agrolandschaft, cho'llashish, sho'rlanish, tabiiy landshaft, modifikatsiya, antropogen, nazariy.

Ключевые слова: ландшафт, сельское хозяйство, агроландшафт, опустынивание, засоление, природный ландшафт, модификация, антропогенный, теоретический.

Key words: landscape, agriculture, agrolandscape, desertification, salinization, natural landscape, modification, anthropogenic, theoretical.

Kirish. Inson bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning doimo dolzarb bo'lib kelgan. Landshaftlarda inson ta'siri ostida kechadigan muammoli jarayonlar uchraydi, ayniqsa hozirgi kunga kelib ularning namoyon bo'lishi, ko'lami va shakllari butkul o'zgardi. Hududning zamonaviy landshaft tuzilishiga ega bo'lishga talab bajarilsa, u landshaftlarning dinamikasi, rivojlanishi va boshqa xususiyatlarida voqelik holatida aks etadi. Bu esa landshaftlardan samarali va oqilona foydalanishni taqozo etmoqda. Tabiiy landshaftlarga insoniyat bir necha ming yilliklardan buyon har hil ko'lamda ta'sir etib kelmoqda. Natijada qishloq xo'jalik landshaftlari barpo etilib, ularning farqlanishi va integratsiyalashuvi, rivojlanishi va joylashishi, turli xossalari, tuzilishi, faoliyati, dinamikasi va evolyutsiyasi qonuniyatlari o'zgarishga yuz tutmoqda. O'tgan asrning 80-yillarida landshaftshunoslik va qishloq xo'jalik ekologiyasi negizida adaptiv landshaft dehqonchiligini vujudga kelishi, uning zahirida ilmiy asosda agrolandschaft konsepsiyasi shakllandi hamda yangi ilmiy yo'nalish bo'lgan agrolandschaftlar to'g'risidagi ta'limot vujudga keldi.

Asosiy qism. Landshaftlarni muhofaza qilish va ulardan qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanish masalalarini tadqiq qilish uchun amaliyotda to'plangan zarur nazariy va uslubiy ishlanmalarga tayanish lozim bo'ladi. Kishilik jamiyatining yaratuvchilik faoliyati, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog'liq jarayonlar tabiiy muhit bilan uzviy aloqada kechadi. Qishloq xo'jaligi landshaftlari to'g'risidagi ta'limot rivojlanishida dastavval V.V.Dokuchayevning ilmiy qarashlari asos bo'lgan edi [16:3].

Landshaftlarni tadqiq etish va uni modifikatsiyalanishi, hamda boshqa xususiyatlari ustida ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan, jumladan; MDH davlatlari olimlaridan L.S.Berg, A.G.Isachenko, V.B.Sochava, F.N.Milkov, N.A.Gvozdetkiy, D.L.Armand, V.A.Nikolayev, S.V.Kalesnik, Y.G.Saushkin, E.V.Milanova, A.M.Ryabchikov, N.I.Axtirseva, K.A.Drozhdov, N.A.Solnsev, L.I.Muxina, A.A.Makunina, M.I.Lopirev va boshqalar shug'ullanishgan. Mamlakatimiz olimlaridan L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.Rafiqov,

P.Baratov, I.Hasanov, P.N.G'ulomov, Sh.S.Zokirov A.Abdulqosimov, Yu.I.Ahmadaliyev, K.M.Boymirzayev, Q.S.Yarashev, B.B.Eshquvvatov va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan. Landshaftlarni tarkib topishi yuzasidan tadqiqot o'tkazgan xorijiy olimlardan landshaftlar haqidagi ta'limotni rivojlanishida eng to'liq sharhni R.Xartshorn o'zining "The Essence of landscape" fundamental monografiyasida bergan. Rosenkrantz esa, landshaftni barcha tabiat boyliklarining ierarxik tarzda tashkil etilgan mahalliy tizimi sifatida belgilashni ma'qul ko'radi va nazariy jihatlari e'tibor qaratdi. Quruqlik landshaftlarini rayonlashtirishda eng qiziqarli tajribalardan biri ingliz geografi E.J.Gerbertsonga tegishlidir. Uning butun yer yuzi bo'ylab landshaftlarni rayonlashtirish amaliyoti anchagina asosli chiqqan. XIX asrning 30-yillarida paydo bo'lgan I.G.Tyunenning "shahar va uning atrofida qishloq xo'jalik tarmoqlarini hududiy joylashtirish" g'oyasida landshaftlarni iqtisodiy tomondan rejalashtirish amaliyoti sifatida ko'rish mumkin. Mazkur g'oyadagi ilmiy fikrlar agrolandschaftlar xususida iqtisodiy sektorning tabiiy geografik tomonlari haqida gap boradi.

Landshaftlarni kartalashtirish masalalari 1950-yillardan boshlandi va juda ham ko'p metodlar orqali o'rganilmoqda: analitik, sintetik, genetik, tarixiy, statsionar vahokazo. B.A.Meliyev o'zining tadqiqotlarida – "Landshaft kompleksining bir butunligi geografik qobiqning barcha komponentlaridan – iqlim, tog' jinslari, relyef, yer usti va yer osti suvlari, tuproq, o'simlik qoplam hamda hayvonot dunyosidan iborat bir butun tabiiy geotizimning o'zaro aloqador va rivojlangan qismlari deb qarash o'rindir. Landshaft kartalaridan qishloq xo'jalik tarmoqlarida amaliy foydalanishning yangidan yangi metodlari ochilmoqda", deb ta'kidlagan va sintetik metod asosida kartalashning afzallik tomonlarini aytib o'tgan edi [6:104].

Landshaftlarning agrolandschaftlarga aylantirila boshlanganligiga, ya'ni Respublikamiz hududida landshaftlarga, sezilar-sezilmas ta'sir qariyb besh ming yillik tarixga borib taqalishini hisobga olsak, bunda juda katta salohiyatga ega kuch gavdalanadi. Biroq, landshaftlardan qishloq xo'jaligida foydalanilish qachondan

boshlanganligi xususida dunyo olimlari o'rtasida (AQSh, Germaniya, B.Britaniya) 2018-yilda ArchaeoGLOBE loyihasi asosida: «ma'lum bo'lishicha, qadimgi odamlar uch ming yil oldin barcha qit'alarda landshaftlarni sezilarli darajada o'zgartirgan» degan xulosaga kelishadi [16:9].

L.S.Berg geografiya fanining rivojlanishida landshaftlar va uning tarmoqlarini o'rganish va tavsiflash vazifasini qo'ygan edi. Olimning fikricha, «geografik landshaftlarni bilmasdan turib, qishloq xo'jaligi landshaftlarini o'rganishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Landshaft – bu faqat tabiiy-hududiy kompleks emas, balki uni ishg'ol etgan sotsium hamdir». Geografik landshaftlar to'g'risidagi bilimlarsiz qishloq xo'jaligini yuksaltirishni tasavvur qilib bo'lmaydi» [13:443]. Landshaftlarning agrolandshtftlarga modifikatsiyalanishida antropogen omil yetakchi kuch hisoblanadi. Antropogen landshaft tushunchasiga ta'riflar ko'p va xilma xildir. Har qanday zamonaviy landshaft tuzilishi tabiiy va antropogen omillar ta'sirida shakllanadi [3:84]. Ma'lumotlarga ko'ra agrolandshtftlar antropogen landshaftlarning eng qadimiy va ko'p tarqalgan turi bo'lib, ular sayyoramizda qariyb 16 ming yil ilgari inson dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlagan paytlardayoq yuzaga kela boshlagan, insoniyat sivilizatsiyasi barcha jabhalarda jumladan landshaftlarda ham katta o'zgarishlarga olib keldi va ta'sir kuchining sezilishi qachon boshlanganligi mavhumroq sanaladi [5:362]. Biroq nazariy jihatdan asoslarga tayanilgan ma'quldir. F.N.Milkov tavsiya etgan antropogen landshaftlar tasniflash sxemasining zahirida - qishloq xo'jaligi: ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan, uning ta'siri ostida shakllanadigan va mavjud bo'ladigan bunday tabiiy-ishlab chiqarish obyektlari qishloq xo'jalik landshaftlarini tashkil etadi, ya'ni, inson landshaftlarni qanchalik darajada o'zgartirganini aniqlab olish zaruriyati kabi xulosa yotadi. Landshaftlarni o'rganish va qishloq xo'jaligi ekologiyasi o'rtasida adaptiv landshaft dehqonchiligi ilmiy asosida agrolandshtft konsepsiyasi shakllandi [14:332]. Qishloq xo'jalik landshaftlarining o'ziga xosligi ularning qisqa muddatli, inson tomonidan tartibga solinadigan komplekslarga mansubligi bilan bog'liq. Hozirgi geografik adabiyotlarda, qishloq xo'jaligiga, uy-joy qurilishiga, tabiat muhofazasiga doir ishlarda qishloq xo'jalik landshaftlari uchun aksariyat hollarda «agrolandshtftlar» atamasi qo'llanilib kelinmoqda [8:339].

Qishloq xo'jaligining qadimdan jamiyat ongiga singib, taraqqiy topishida shu hududdagi jamiyat va uning ehtiyojlariga bog'liq. N.A.Gvozdet'skiy O'rta Osiyo voha landshaftlarini alohida landshaft tiplariga ajratadi. [7:222]. Xalqimizda inson oyog'i yetmagan joy qolmadi degan iboraga mos ta'rifni Yu.G.Saushkin – Qurulikkda madaniy landshaftlar tushunchasiga mos kelmaydigan hududlar kam qolgan deya aytgan. Olim ma'daniy landshaftlar qatoriga O'rta Osiyo va O'zbekiston cho'l hududlarida qadimiy qishloq xo'jaligini inobatga olib Xorazm va Buxoro vohalarini kiritadi [10:497, 11:106]. Ko'pchilik landshaftshunoslar qatori V.A.Nikolayev (1979) qishloq xo'jaligi landshaftlarini agrolandshtftlar deb ataydi va «Agrolandshtft - har qanday agrotizim emas, balki faqat (regional mazmundagi) tabiiy landshaft uchun xos bo'lgan geotizimning o'zi darajasidagi muayyan – regional kattalikdagi tizim tushunilishi lozim» deb ta'riflagan [9:27].

V.A.Chernikov (2003) «tabiiy o'simlik qishloq xo'jalik o'simliklari bilan almashtirilgan hudud agrolandshtft deyiladi» deb atagan bo'lsa, V.M.Chupaxin (1987) «Agrolandshtft – antropogen landshaft toifalaridan biri bo'lib, qishloq xo'jalik yerdan foydalanish natijasida inson tomonidan yaratilgan» deya ta'riflagan. Agrolandshtftlarga mukammal ta'riflardan yana birini M.I.Lopirev (1995) tomonidan berilgan bo'lib, muallif «agrolandshtft deb umumiy ekotizimning belgilari bo'lgan nisbatan mustaqil (avtonom) suv, issiqlik va boshqa rejimlari o'zaro bog'liq tabiiy komponentlarning, dehqonchilik tizimi va yer

tuzilishi elementlarining majmuasidan iborat bo'lgan yer massivi tushuniladi» deya ta'kidlagan [5:359].

Yer yuzi landshaftlarida qishloq xo'jaligi joyning geografik o'rni, relyefi, quyosh radiatsiyasi, iqlimi, ichki suvlari, kontinentalligi va boshqa xususiyatlariga qarab farqlanadi. Dunyo miqyosida qishloq xo'jaligi sohalari dehqonchilik va chorvachilikka bo'lingan. Ularning orasida haydaladigan landshaftlar katta ulushni tashkil qiladi. Aholining asosiy mashg'uloti azaldan qishloq xo'jaligi bo'lgan ekin landshaftlari shakllangan, shuning uchun rivojlanish uchun yaroqli barcha tuproqlar haydaladi va qishloq xo'jaligi yerlari tarkibida haydaladigan yerlar ustunlik qiladi [1:186]. Qishloq xo'jaligida olib boriladigan hududlarda shakllanuvchi antropogen landshaftlar inson ta'sirida qisqa davrda boshqariladigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, dala landshafti ekin turlarining o'zgarishi ya'ni almashlab ekish orqali ma'lum darajada tarkibi va shaklini o'zgartiradi [12:399].

Qishloq xo'jalik landshaftlari turli tarixiy davrlarda har xil jarayonlarni boshdan kechirish asnosida o'zining «javob xulosasi»ni albatta aytib kelmoqda. Landshaftshunoslik hududlarni muhofaza qilish, ulardan foydalanish, o'rganish muammolarini hal qilsa, amaliy tajribada to'plangan zarur nazariy va uslubiy ishlanmalar asosida mutaxassislar inson faoliyatining atrof-muhitga faol ta'siri muammosiga landshaft yondashuvi orqali qarashlari kerak bo'ladi [19:62].

Qishloq xo'jalik landshaftlari antropogen landshaftlarning eng keng tarqalgan turlaridan biridir. Agrolandshtftga aylantirilgan landshaftlar birinchi galda ehtiyojni qondirish uchun foydalanilsa, uning barqarorligini ta'minlash esa insoniyat oldidagi burch hisoblanadi [18:165]. Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki doimo yerdan foydalanib kelmoqda, hozirgi zamonaviy hayotda bu iqtisodiy jihatdan qarashga va davrlarga bo'linishga olib keldi. Qadim zamonlardayoq landshaftlarga insonning ta'siri sezila boshlagan, o'sha davrga hos bo'lgan jarayonlar kuzatilgan, masalan degradatsiya jarayonlari bunga misol bo'ladi. Landshaftlarning kishilik jamiyati harakat jarayonlari bilan mutasil rivojlanishga, o'zgarishga uchrashi genetik sayqallanish masshtabini oshiradi. Bu esa landshaft komponentlari orasida o'zgarishga «moyil»ligi yuqori komponentlarga birinchi galda ta'sir etdi [19:60]. Jumladan, o'simlik va hayvonot olami qishloq xo'jaligi ta'siri ostida migratsion harakatga yoki butkul yo'qolib ketishigacha bordini. Provardida esa murakkab landshaftlar o'rniga, ehtiyojga mos va bir xil sodda qishloq xo'jaligi landshaftlari shakllanadi. Albatta bu geomatik holatda relyef, iqlim va tuproq qoplamida ma'lum bir o'zgarishlarni boshlab beradi. Yer yuzida tabiat zonalar bo'ylab shu hududning agroiklimiga mos har hil qishloq xo'jalik ekinlari yetishtiriladi. Agroiklimiy rayonlashtirish masalalarida o'simlikning pishib yetilishi, tabiat injiqliklari, vegetatsiya davri, qurg'oqchilik, garmseller va boshqa shu kabi omillarni atroflicha o'rganish hamda nazariy jihatdan asoslash ishlari yanada takomillashtirish lozim.

Xulosa. Bugungi kunda jahon mamlakatlarida oziq ovqat muammosi, cho'llashish, degradatsiya kabi ko'plab muammolariga, landshaftlardan qishloq xo'jaligida foydalanish samaradorligi orqali erishish mumkinligi ma'lum bo'lmoqda. BMTning oziq ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.06.2024 yildagi PQ-233-son «Iqlim o'zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorida ham qishloq xo'jaligini rivojlantirishga, agroekotizimni yaxshilashga doir qaror qabul qilindi. Landshaftlarni tadqiq etishda qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlari bo'yicha mavjud geokologik muammolar bilan ham hisoblashish lozimligini ko'rsatadi. Yurtimiz hududida o'ziga xos qishloq xo'jaligi

shakllangan bo‘lib, bunga misol qilib qishloq xo‘jaligi landshaftlarining ba‘zi muammolarga duch kelinganini ko‘rishimiz mumkin: tuproqlar degradatsiyasi, cho‘llanish, ikkilamchi sho‘rlanish, tuproqlarning mehanik tarkibining buzilganligi, kimyoviy o‘g‘itlarning solinishi, mahalliy o‘simliklarning keyingi davrda yot hisoblanib yo‘q qilinishi, shamolning tuproq yuza qismini uchirish harakatlari, yer usti suv yo‘llarini yotqizishdagi noaniqliklar, zovurdrenaj tizimlarining yetishmasligi yoki eskirganligi va boshqalar. Xulosa qilingan holda, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- qishloq xo‘jaligi landshaftlarida kechadigan barcha tabiiy va notabiiy jarayonlarning bosh omillarini aniqlash;
- landshaft tadqiqotlarida qishloq xo‘jaligiga moslashtirilgan har bir kichik hududlar uchun mikrozonalashtirish;
- landshaftlardan foydalanishda raqamli GAT texnologiyalariga asoslangan, qishloq xo‘jaligida intensiv va innovatsion xo‘jalik yuritishda tizimlashtirish;
- relyef, iqlim, tuproq qoplamidagi o‘zgarishlarni davrlashtirish; kabi samarali usullarni o‘z ichiga oladi. Bu esa landshaftlardan qishloq xo‘jaligida foydalanishda bir qancha afzalliklar yaratadi.

Adabiyotlar

1. Демиденко Г.А. Ландшафтоведение: учебное пособие. – 2-е изд., перераб. и доп. – Красноярск: 2020. –С. 186.
 2. Абдулқосимов А., Абдурахмонова Ю., Давронов К. Зарафшон ботиғи геоэкологияси. – Тошкент: 2017. 114-128-б.
 3. Abdulqosimov A.A., Yarashev Q.S., Ulug‘murodov E.B. Zarafshon botig‘ida voha landshaftlarining vujudga kelishi va rivojlanishi // Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. №5 – Samarqand: 2021. 78-84-б.
 4. Абдулкасимов А. Ландшафты Самаркандского оазиса. //Проблемы освоения пустынь. - Ашхабад, 1999. №5. -С. 64-69.
 5. Abdullayev S., Muqumova H., Xushmurodov F.. Agrolandschaftlarni o‘rganishning nazariy va metodik asoslari // Geografiya: tibat va jamiyat. –Toshkent: Volume 2, ISSUE1. №1. 2021. 359-362-b.
 6. Abdulqosimov A., Yarashev K., Meliyev B. Landshaft komplekslarini kartalashtirishning dolzarb muammolari // Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. 1-son (95). – Samarqand: 2016. 100-104-b.
 7. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии. –М.: «Высшая школа», 1979. –С. 222.
 8. Лопырев М.И. Основы агrolandschaftного земледелия. - Воронеж: изд-во Воронежского ун-та, 1995. –С. 339.
 9. Николаев В.А. Концепция агrolandschaftа // Вестник МГУ. Сер. 5. География. №2. -М.: 1987. -С.22-27.
 10. Khaitbaev A., Yarashev K., Karimov Y., Nazarov M. Anthropogenic transformation of oasis landscapes in Khorezm Province, Uzbekistan: a geoeological analysis. // 5th International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering ICECAE 2024 Volume 497.
 11. Саушкин Ю.Г. Культурный ландшафт //Вопросы географии, вып. 1, - М.: 1946. -С. 97-106.
 12. Берг Л.С. Ландшафтно-географические зоны СССР.- Л.: Сельхозгиз, 1930. –С. 399.
 13. Кирюшин В.И. Теория адаптивно-ландшафтного земледелия и проектирование агrolandschaftов. -М.: «Колос». 2011. - 443
 14. Мильков Ф.Н. Общее землеведение. – М.: «Высшая школа», 1990. –С. 332.
 15. Karimov Y.T., Yarashev K.S. Experience of world and Uzbek scientists in mapping soil salinity through geoinformation technologies. // "Экономика и социум" –Саратов: №8 (111) 2023.
 16. Xasanov P.A. "Tabiiy landshaftlarning antropogen modifikasiyalanishi va agrolandschaftlar o‘rganilish tarixi"//Экономика и социум, -Саратов: 28. №12 (115), 2023 www.iupr.ru
 17. Ярашев Қ.С. Сурхондарё ботиғи геоэкологик ҳолатини оптималлаштиришнинг географик асослари // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 51- жилд. – Самарқанд: 2017. 63-67-б.
 18. Yarashev Q.S., Eshquvvatov B.B. Konussimon yoyilma landshaftlarni melioratsiyalashning asosiy prinsiplari // Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi, 5-son (117). – Samarqand: 2019. 163-165-b.
 19. Yarashev K.S., Eshquvvatov B.B. Scientific and Practical Measures of Analysis of Plains and Landscapes // Journal Natural and Science. Volume 18, Number 3. USA. March 25, 2020. –P. 60-62.
 20. www.LEX.uz
- REZYUME.** Landshaftlarning qishloq xo‘jalik maqsadlarida o‘rganishda tabiiy jarayonlarni ma‘lum bir ritmga solinishi dolzarb muammolarning yechimini topishda yordam beradi.
- РЕЗЮМЕ.** При изучении ландшафтов сельскохозяйственного назначения, введение природных процессов в определенный ритм помогает найти решение текущих проблем.
- SUMMARY.** In the study of landscapes for agricultural purposes, the introduction of natural processes into a certain rhythm helps to find solutions to current problems.